O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”

“San’atshunoslik” fakulteti dekani

_____ X.E.Sultanov

“28” “09” 2026 yil

“San’atshunoslik” fakulteti

60210400 - “Dizayn: Interyer dizayni”

Ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich

3-semestr

“Arxitektura va Interyer Tarixi” fanidan yakuniy nazorat variantlari

Tuzuvchilar: M.B.Ismoilova

San’atshunoslik fakultetining 2026 yil “28” 09 3 - sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi.

CHIRCHIQ – 2026

1. Dorik tartibdagi ustunlar Ionik tartibdagilardan qanday belgisi bilan farq qiladi?

A) Volyutali kapitelga ega

B) Bazasi mavjud emas

C) Ustun tanasi silliq

D) Akant barglari bilan bezatilgan

2. Qadimgi Yunoniston me'morligida optik tuzatish (optical correction) usuli nima uchun qo'llanilgan?

A) Binoga tabiiy yoritish berish uchun

B) Inson ko'rish illyuziyasini kompensatsiya qilish uchun

C) Rang uyg'unligini ta'minlash uchun

D) Qurilish jarayonini tezlashtirish uchun

3. Qadimgi Rimdagi akveduklarning asosiy vazifasi nima edi?

A) Himoya devori vazifasini bajarish

B) Shaharlarga suv yetkazib berish

C) Savdo yo'llarini belgilash

D) Harbiy istehkom sifatida foydalanish

4. Qaysi me'moriy yodgorlik Rim muhandislik tafakkurining eng yuksak namunasi hisoblanadi?

A) Parfenon

B) Kolizey

C) Erexteyon

D) Partenon

5. Qadimgi Yunoniston me'morchiligi ko'proq qanday materialdan foydalangan?

A) G'isht va beton

B) Marmar va ohaktosh

C) Yog'och va ganch

D) Temir va po'lat

6. “Atrium” tushunchasi qadimgi Rimda nimani anglatgan?

A) Bog‘ bilan o‘ralgan ochiq hovli

B) Ustunli portik

C) Xona ichidagi rasmli devor

D) Ma’badning asosiy kirish qismi

7. Qadimgi Yunon me’morlari binolarni joylashtirishda nimaga katta ahamiyat berishgan?

A) Iqlim sharoiti va quyosh yo‘nalishiga

B) Qurilish tezligi va narxiga

C) Diniy rasm-rusumlarga

D) Material zaxirasiga

8. Qadimgi Rim arxitekturasida gumbazli konstruksiyani birinchi qo‘llagan inshoot qaysi?

A) Kolizey

B) Pantheon

C) Bazilika Yuliya

D) Forum Romanum

9. Antik interyerlarda ishlatilgan mozaika texnikasining asosiy materiali nima edi?

A) Rangli shisha va tosh parchalari

B) Ganch va yog‘och bo‘laklari

C) Quruq pigment va bo‘yoq

D) Yoyma oltin qatlamlari

10. Qadimgi Rimdagi Domus uylari qanday qatlam vakillariga tegishli bo‘lgan?

A) Harbiy qullarga

B) Oddiy dehqonlarga

C) Badavlat fuqarolarga

D) Ruhoniylarga

11. Ilk davr me'morchiligining eng qadimgi bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?

A) Neolit

B) Meozolit

C) Paleolit

D) Eneolit

12. Ibtidoiy davr odamlarining eng oddiy yashash joyi nima bo'lgan?

A) Kromlex

B) Dolmen

C) G'or

D) ZikkuraT

13. "Megalit" so'zining ma'nosi nimani anglatadi?

A) Kichik tosh

B) Katta tosh

C) Qizil tosh

D) Silliqlangan tosh

14. Ikki vertikal tosh ustiga yotqizilgan bitta gorizontal toshdan iborat megalit inshoot qanday nomlanadi?

A) Mengir

B) Kromlex

C) Dolmen

D) Kurgan

15. Yer shari bo'ylab o'rnatilgan yagona vertikal tosh ustuni (monument) qanday nomlanadi?

A) Dolmen

B) Mengir

C) Kromlex

D) Kurgan

16. Asosan Neolit davrida paydo bo'lgan, doira shaklida joylashtirilgan tik toshlardan iborat inshoot qanday nomlanadi?

A) Dolmen

B) Mengir

C) Kromlex

D) Mastaba

17. Dunyodagi eng mashhur kromlex qaysi?

A) Zikkurat

B) Giza piramidasi

C) Stounhenj

D) Akropol

18. Ilk davr turar joylarining eng rivojlangan shakllaridan biri, to'g'ri burchakli yoki oval shakldagi yog'och va loydan qurilgan uylar qaysi davrga xos?

A) Paleolit

B) Neolit

C) Meozolit

D) Bronza davri

19. Ilk davr me'morchiligidagi inshootlarning asosiy vazifasi nima bo'lgan?

A) Muhofaza va diniy marosimlar

B) Savdo markazi

C) Sport maydonchasi

D) Kutubxona

20. Ilk davr me'morchiligida ishlatilgan asosiy qurilish materiali qaysi?

A) G'isht

B) Temir

C) Tosh va yog'och

D) Beton

21. Xiva shahri qaysi tarixiy vohaga kiradi?

A) Farg‘ona vohasi

B) Zarafshon vohasi

C) Xorazm vohasi

D) Qashqadaryo vohasi

22. Xiva shahrining eng mashhur tarixiy qismi nima deb ataladi?

A) Qal’ai Buxoro

B) Samarqand minorasi

C) Ichan qal’a

D) Registon

23. Ichan qal’a qachon YuNESKOning Butunjahon merosi ro’yxatiga kiritilgan?

A) 1990-yilda

B) 1991-yilda

C) 2000-yilda

D) 1985-yilda

24. Xivadagi eng mashhur minora nomini toping.

A) Kalyan minorasi

B) Minorayi Isa

C) Kalta Minor

D) Minorayi Go‘ri Amir

25. Muhammad Aminxon madrasasi qachon qurilgan?

A) XVI asrda

B) XVIII asrda

C) XIX asrda

D) XX asrda

26. Xivadagi me’moriy inshootlarda asosan qanday bezaklar ishlatilgan?

A) Rangli shisha bezaklar

B) Sirlangan koshin va g‘isht naqshlari

C) Oltin qoplamalar

D) Yog‘och o‘ymakorligi

27. Xiva arxitekturasi qaysi me’moriy uslubga mansub?

A) Yunon uslubi

B) Sharq islomiy me’morchilik uslubi

C) G‘arbiy gotika uslubi

D) Yevropa klassitsizmi

28. Xiva arxitekturasi uchun xos bo’lgan qurilish materiali qaysi?

A) Marmar

B) Xom g‘isht va pishiq g‘isht

C) Temir va beton

D) Yog‘och

29. Xivadagi Toshhovli saroyi kim tomonidan qurilgan?

A) Allakulikxon tomonidan

B) Muhammad Rahimxon tomonidan

C) Shoh Abbos tomonidan

D) Ulug‘bek tomonidan

30. Xiva arxitekturasining asosiy g’oyasi nimani ifodalaydi?

A) Harbiy kuchni

B) Savdo va boylikni

C) Sharqona go‘zallik va ruhiy uyg‘unlikni

D) Zamonaviylikn

31. Boburiylar sulolasi Hindistonda qaysi asrda hukmronlik qilgan?

A) XI–XIII asrlar

B) XIII–XV asrlar

C) XVI–XIX asrlar

D) XV–XVII asrlar

32. Boburiylar arxitekturasining asoschisi hisoblangan hukmdor kim?

A) Akbarshoh

B) Humoyun

C) Bobur

D) Jahongir

33. Boburiylar me'morchiligi asosan qaysi ikki madaniyat uyg'unligidan tashkil topgan?

A) Arab va Vizantiya

B) Turk va Eron

C) Markaziy Osiyo va Hind

D) Yevropa va Xitoy

34. Boburiylar davrida qurilgan eng mashhur maqbara bu —

A) Qutb Minor

B) Toj-Mahal

C) Qal'a-i Humoyun

D) Fatehpur Sikri

35. "Toj-Mahal" maqbarasi qaysi hukmdor tomonidan qurilgan?

A) Bobur

B) Akbar

C) Jahongir

D) Shohjahon

36. Boburiylar davridagi inshootlarda ko‘p uchraydigan asosiy qurilish materiallari?

A) Oq marmar va qizil qumtosh

B) G‘isht va loy

C) Beton

D) Yog‘och

37. Boburiy interyerlarining asosiy bezak elementlari nimalardan iborat edi?

A) Oltin naqshlar va oynavand devorlar

B) Naqshu nigor, ganch o‘ymalar, marmar mozaikalar

C) Yog‘och haykallar

D) Rasmli devor qog‘ozlar

38. Akbarshoh davrida qurilgan mashhur shahar — bu:

A) Delhi

B) Agra

C) Fatehpur Sikri

D) Lahore

39. Boburiy arxitekturasida gumbaz shakli qanday ma’noga ega edi?

A) Oddiy tom yopish usuli

B) Osmon va abadiyat ramzi

C) Hukmdor qudratini ko‘rsatish uchun

D) Shahar bezagi sifatida

40. Boburiy uslubi keyinchalik qaysi davlat arxitekturasiga katta ta’sir ko‘rsatgan?

A) Turkiya

B) Eron

C) Pokiston

D) Misr

41. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi asosan qaysi daryo bo‘yida shakllangan?

A) Frot daryosi

B) Nil daryosi

C) Xuanxe (Sariq daryo)

D) Ind daryosi

42. Xitoyda san’at va madaniyatning dastlabki rivojlanish davri qaysi sulola bilan bog‘liq?

A) Qin sulolasi

B) Shan (Yin) sulolasi

C) Xan sulolasi

D) Sun sulolasi

43. Buyuk Xitoy devori qaysi maqsadda qurilgan?

A) Savdo uchun

B) Dushmanlardan himoyalanish uchun

C) Diniy marosimlar uchun

D) Suv yo‘lini to‘sish uchun

44. Xitoyda qadimda ishlatilgan asosiy qurilish materiali nima bo‘lgan?

A) Marmar

B) Yog‘och va pishiq g‘isht

C) Temir

D) Loy

45. Xitoyda ibodatxonalar va saroylar qurilishida qanday tom shakli ishlatilgan?

A) Egilgan, yuqoriga ko‘tarilgan tom shakli

B) Tekis tom

C) Yarim gumbazli tom

D) Ustunsiz tom

46. Xitoy san'atida "bronza buyumlar" asosan nimani anglatadi?

A) Marosim idishlari va haykalchalar

B) Qurol-aslahalar

C) Zargarlik buyumlari

D) Savdo mahsulotlari

47. Xitoy rassomchiligi asosan qaysi uslubda rivojlangan?

A) Siyoh bilan chizilgan manzara va tabiat tasvirlari

B) Rangli freska uslubi

C) Mozaika uslubi

D) Yog' bo'yoq bilan portret

48. Xitoy me'morchiligining eng mashhur yodgorliklaridan biri qaysi?

A) Parfenon ibodatxonasi

B) Buyuk Xitoy devori

C) Zikkurat

D) Kolizey

49. Xitoyda "Pagoda" so'zi nimani bildiradi?

A) Saroy

B) Ko'p qavatli diniy ibodatxona minorasi

C) Savdo binosi

D) Qo'riqxona

50. Qadimgi Xitoy san'ati va arxitekturasi asosan nimani ifodalaydi?

A) Jangovar ruhni

B) Tabiatning kuchini

C) Tabiat va inson uyg'unligini

D) Savdo va boylikni

51. Roman me'morchiligi qaysi davrda shakllangan?

A) Mil. avv. III asrda

B) Mil. avv. I asrdan - mil. IV asrgacha

C) Mil. I–III asrlar

D) Mil. IV–V asrlar

52. Rim me'morchiligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan madaniyat qaysi edi?

A) Misr me'morchiligi

B) Vizantiya me'morchiligi

C) Yunon me'morchiligi

D) Fors me'morchiligi

53. Erta davr (m.avv. I asrgacha) Rim me'morchiligi qaysi uslubdan ta'sirlangan?

A) Etrusk va yunon me'morchiligi

B) Gotika uslubi

C) Sharqona uslub

D) Vizantiya uslubi

54. Respublikachilik davrida Rimda qanday inshootlar qurilgan?

A) Amfiteatrlar

B) Forumlar va bazilikalar

C) Saroylar

D) Hammomlar

55. Imperiya davrida qurilgan mashhur inshootlardan biri qaysi?

A) Parfenon

B) Kolizey

C) Akropol

D) Partenon

56. So‘nggi davrda Rim me’morchiligi qaysi yo‘nalish bilan uyg‘unlashdi?

A) Yunon

B) Vizantiya

C) Misr

D) Sharq

57. Xristian bazilikalari qaysi davrda qurilgan?

A) Erta davr

B) Respublikachilik davri

C) Imperiya davri

D) So‘nggi davr

58. Roman me’morchiligida ishlatilgan asosiy konstruktiv elementlar qaysilar?

A) Ustun, ark, gumbaz, tonoz

B) Yog‘och, bambuk, panjara

C) Minoralar va gumbazlar

D) Bezakli peshtoqlar

59. Roman me’morchiligida ishlatilgan asosiy materiallar qaysilar?

A) Gil va yog‘och

B) Beton, tosh, marmar, g‘isht

C) Oltin va bronza

D) Shisha va metal

60. Rimda suv o‘tkazuvchi akveduklar qaysi davrda qurilgan?

A) Erta davr

B) Respublikachilik davri

C) Imperiya davri

D) So'ngi davr

61. Barokko san'ati qaysi asrda paydo bo'lgan?

A) XVI asrda

B) XV asrda

C) XVII asrda

D) XIX asrda

62. Barokko so'zining ma'nosi qanday?

A) "Go'zal" degani

B) "Noto'g'ri shakldagi marvarid" degani

C) "Mukammal" degani

D) "Yangi uslub" degani

63. Barokko uslubi asosan qaysi davlatda paydo bo'lgan?

A) Ispaniya

B) Italiya

C) Fransiya

D) Germaniya

64. Barokko me'morchiligining asosiy belgilaridan biri nima?

A) Soddalik va tabiiylik

B) Kat'iy simmetriya va tiniqlik

C) Hashamat, bezakdorlik, harakat hissi

D) Minimalizm va tozalik

65. Barokko uslubining mashhur me'morlaridan biri kim?

A) Bernini

B) Mikelanjelo

C) Da Vinchi

D) Brunelleski

66. Barokko san'ati qaysi diniy oqim ta'sirida shakllangan?

A) Protestantizm

B) Katoliklik

C) Buddizm

D) Pravoslavlik

67. Barokko davrida rassomlar asosan nima tasvirlashgan?

A) Kundalik hayot

B) Abstrakt shakllar

C) Diniy va mifologik sahnalar

D) Sanoat manzaralari

68. Barokko san'ati qaysi uslubdan keyin paydo bo'lgan?

A) Gotika

B) Uyg'onish (Renessans)

C) Klassitsizm

D) Rokoko

69.Barokko san'ati asarlarida odatda qanday kayfiyat hukm suradi?

A) Sokinlik va oddiylik

B) Dramatizm, hissiyot va tantanavorlik

C) Tabiiylik va real hayot

D) Soddalik va qat'iylik

70. Barokko uslubi keyinchalik qaysi uslubga o'rin bo'shatib bergan?

A) Rokoko

B) Realizm

C) Modernizm

D) Impressionizm

71. 1868-yilda Samarqandda qanday muhim tarixiy voqea yuz berdi?

A) Amir Temur davrida Registon qurilishi boshlandi

B) Sovet hokimiyati o‘rnatildi

C) Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etildi

D) Mustaqillikka erishildi

72. Samarqandda rus ta’siri bilan joriy etilgan shaharsozlik uslubi qanday ataladi?

A) Radiatsion reja

B) Gippodam rejasi (katakli reja)

C) Spiral reja

D) Qal’a rejasi

73. “Yangi shahar” uchun Samarqandning bosh rejasi qachon tasdiqlangan?

A) 1868-yil

B) 1875-yil

C) 1882-yil

D) 1892-yil

74. Samarqand viloyati 1886-yilda nechta uyezddan iborat bo‘lgan?

A) 3 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 6 ta

75. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida “eski shahar” qismida nechta yirik mahalla mavjud bo‘lgan?

A) 3 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 6 ta

76. 1882-yilda qurilgan “Ofitserlar uyi” binosi qaysi me’moriy uslubda barpo etilgan?

A) Barokko

B) Klassitsizm

C) Gotika

D) Modern

77. Savdogar A. Kalontarovning uyi (hozirgi O‘lkashunoslik muzeyi) qaysi yillarda qurilgan?

A) 1880–1885-yillar

B) 1890–1895-yillar

C) 1911–1916-yillar

D) 1900–1905-yillar

78. Samarqandning yangi qismidagi ruslar yashaydigan hudud taxminan qancha bo‘lgan?

A) 0.5 gektar

B) 1.09 gektar

C) 5 gektar

D) 10 gektar

79. Quyidagilardan qaysi biri “eski shahar”dagi asosiy maydonlardan biri emas?

A) Registon maydoni

B) Bibixonim maydoni

C) Amir Temur xiyoboni

D) Somon bozori maydoni

80. 1868–1917 yillardagi o‘zgarishlar natijasida Samarqand qanday shahar darajasiga yetgan?

A) Faqat diniy markazga

B) Faqat harbiy shahar darajasiga

C) Madaniy markaz va zamonaviy shaharsozlik namunasi darajasiga

D) Savdo karvonsaroyi markakaziga.

81. Fransuzcha "renaissance" sozi qanday manoni bildiradi?

A) Yangilanish

B) Ruhning qaytishi

C) Qayta qurish

D) Taraqqiyot

82. Renessans stili davrida qaysi g'oya oldinga surilgan?

A) Insonparvarlik, ilm fan, sanat

B) Diniy dunyoqarash

C) Ilohiy xudolarga sig'inish

D) To'g'ri javob yoq

83. Bu davrda qaysi davlatlar memoriy shakllaridan foydalaniladi?

A) Fransiya Italiya

B) Rim Yunon

C) Italiya Rim

D) Misr

84. Renessans memorchiligi nechta davrga bolinadi?

A) 2

B) 5

C) 4

D) 3

85. Erta Renessans davrida binolar qanday qurildi?

A) Boy, haddan tashqari dabdaba

B) Qalin oynalar, qalinlikni tashqi tomonga taqsimlash

C) Sodda, mutanosiblik, meyoriy ordenlar ishlatildi

D) Qalin qovurgalar, uchli uchburchak shakldagi arkalar

86. Yuksak Renessans davrida qaysi shahar sanat markaziga aylandi?

A) Rim

B) Angliya

C) Italiya

D) Fransiya

87. Kech Renessans davridagi villa Rotonda va Veneto villalari memori togri berilgan qatorni toping?

A) Donato Bramante

B) Rafael

C) Andrea Palladio

D)Mikelanjelo

88. Renessans stilida keng ishlatilgan, shift yoki gumbazdagi cho'kib tushurilgan, geometrik shakldagi, kvadrat, tortburchak yoki boshqa shakldagi panel nima deyiladi?

A) Pilaster

B) Portik

C) Kasson

D) Bazililk

89. Kassonlar asosan nima uchun ishlatilgan?

A) Hashamat berish, yanaham boy korsatish

B) Xonalar keng va baland korinishi

C) Yengillik, materialni tejash, binoning ichki makonini bolish

D) Havo yaxshi aylanishi uchun

90. Renessans - Yevropa madaniyatida nechanchi asrda shakllanga?

A) 16-17asrlar

B) 15-16 asrlar

C) 11-13 asrlar

D) 16-asrlar ohiri

91. Gotika arxitekturasi qaysi asrlarga oid?

A) IX–XI asrlar

B) XII–XVI asrlar

C) XVII–XVIII asrlar

D) XIX asr

92. Gotika uslubi birinchi bor qaysi mamlakatda paydo bo‘lgan?

A) Italiyada

B) Fransiyada

C) Germaniyada

D) Angliyada

93. Gotika uslubining asosiy arxitektura elementi:

A) Dumaloq arka

B) Qalin devor

C) O‘tkir (qoziqsimon) arka

D) Past g‘osha

94. Gotika binolarida yorug‘lik qanday ta’minlangan?

A) Devordagi kichik teshiklar orqali

B) Vitraj oyna orqali

C) Yog‘och panjaralar orqali

D) Yorug‘lik yo‘q

95. Gotika uslubidagi asosiy qurilish materiallari qaysilar?

A) Yog‘och va gilam

B) Tog’ jinsi va tosh

C) Metall va shisha

D) Gips va qog‘oz

96. Gotika uslubi qaysi binolarda ko‘proq qo‘llanilgan?

A) Qal’alar va soborlarda

B) Fabrikalarda

C) Uy-joylarda

D) Bozor binolarida

97. Gotika arxitekturasida uchuvchi tayanchlar (flying buttress) nima uchun xizmat qilgan?

A) Binoni bezash uchun

B) Devorlarga tushgan og‘irlikni tashqariga tarqatish uchun

C) Suv chiqarish tizimi uchun

D) Chirkovni bezatish uchun

98. Gotika binolarida ichki interyer qanday bo‘ladi?

A) Tor va zulmatli

B) Baland va yorug’

C) Past va quruq

D) Devorsiz

99. Erta Gotika davri qaysi yillarni o‘z ichiga oladi?

A) 1000–1100

B) 1120–1200

C) 1200–1300

D) 1250–1370

100. Yuqori Gotika davridagi asosiy misol bo‘lgan ibodatxona qaysi?

A) Abbey of Saint-Denis

B) Notre-Dame de Paris

C) Sainte-Chapelle

D) Chartres Cathedral

111. Gotika uslubiga xos bo‘lgan tuzilish belgilaridan biri:

A) Yondosh g‘oshlar

B) Uzun ustunlar va vertikalik

C) Yengil qoplamalar

D) Kichik eshiklar

112. “Flamboyant” yoki “Kech Gotika” qaysi asrlarda rivojlangan?

A) XII–XIII asrlar

B) XIV asr

C) XV–XVI asrlar

D) XVII asr

113. Gotika uslubidagi fasadlar ko‘pincha nima bilan bezatilgan?

A) Shisha gullar bilan

B) Haykallar va naqshlar bilan

C) Yog‘och chiziqlar bilan

D) Oq rang bilan

114. Gotikadagi “ribbi tonozlar” nima?

A) Oynali eshiklar

B) Qatlamli devorlar

C) Qovurg‘ali gumbazlar

D) To‘g‘ri burchakli ustunlar

115. Gotika uslubida qo‘llaniladigan haykallar asosan qayerda joylashgan?

A) Ichki polda

B) Fasad va eshik atrofida

C) Shisha ortida

D) Qal’a chetida

116. Gotika interyeridagi vitraj oyna syujetlari nima haqida bo‘lgan?

A) Tabiat manzaralari

B) Dunyoiy hayot

C) Diniy mavzular, Bibliya voqealari

D) Afsana va rivoyatlar

117. Gotikadagi tashqi bezak elementlaridan biri:

A) Freska

B) Pinakllar

C) Mozaika

D) Panorama

118. Gargoyllar (gargoyles) nima vazifani bajargan?

A) Yorug‘lik berish

B) Bezak sifatida xizmat qilish

C) Suv chiqaruvchi haykallar bo‘lgan

D) Havo tozalash uchun

119. Gotika uslubining madaniy ahamiyati nima bilan bog‘liq?

A) Qurilish texnologiyasi bilan

B) O‘rta asr shaharlarining markaziga aylangan soborlar bilan

C) Uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan

D) Siyosiy tizim bilan

120. Gotika uslubining asosiy g‘oyasi nima?

A) Yerga yaqinlik

B) Xudoga intilish, ruhiy yuksaklik

C) Tabiatga muhabbat

D) Real hayotni ko‘rsatish

Fan o‘qituvchisi  **M.B.Ismoilova**